



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

MAKTABGACHA YOSHDAGI AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLI BOLALARGA KORREKSION-PEDAGOGIK ISH USULLARINING TA'SIRINI TAKOMILLASHTIRISH

Qosimova Nafosat Jahongir qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga jalb etish va kerakli shart-sharoitlar bilan ta'minlash, ularni jamiyatga integratsiya qilish va samarali o'qitishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, autizmning kelib chiqish sabablari va turlari haqida xulosalar berilgan bo'lib, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni o'qitishda inklyuziv ta'limning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: autizm, inklyuziv ta'lim, genetika, irsiy moyillik, stereotipik xatti-harakatlar, integratsiya, tenglik, individual yondashuv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДОВ КОРРЕКЦИОННО- ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Косимова Нафосат Джахонгир кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, базовый докторант

Аннотация

В этой статье рассматривается вовлечение детей с расстройствами аутистического спектра в процесс инклюзивного образования, обеспечение им необходимых условий, организация мероприятий, направленных на интеграцию в общество и эффективное обучение. Также приводятся краткое изложение причин и типов аутизма, что показывает важность инклюзивного образования в обучении детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: аутизм, инклюзивное образование, генетика, наследственная предрасположенность, стереотипное поведение, интеграция, равенство, индивидуальный подход.

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL METHODS FOR PRESCHOOL CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDERS

Qosimova Nafosat Jahongir qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Doctoral Researcher

Abstract

This article talks about the involvement of children with autism spectrum disorders in the process of inclusive education and providing them with the necessary conditions, the organization of activities aimed at integrating them into society and effective teaching. Summaries of the causes and types of autism are also given, revealing the importance of inclusive education in teaching children with special needs.

Keywords: autism, inclusive education, genetics, hereditary predisposition, stereotypical behavior, integration, equity, individual approach.

Mamlakatimizda inklyuziv muhitda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilangan. Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta'limining dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayoni inklyuziv

ta'lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o'zlariga xos bo'lgan ta'limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim.

Adabiyotlar tahlili

Autistik spektr buzilishli bolalarni korreksion-pedagogik qo'llab-quvvatlash masalalari so'nggi yillarda maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar autizmli bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ularning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Mo'minova L.R. tomonidan yaratilgan "Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari" nomli uslubiy qo'llanmada autizm sindromining kelib chiqish omillari, klinik belgilari hamda korreksion-pedagogik ishlarning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Muallif autizmli bolalarda muloqot, nutq va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni tahlil qilib, ularga individual yondashuv asosida ta'lim berish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda vizual tayanchlar, o'yin texnologiyalari va ijtimoiy moslashuv mashqlarining samaradorligi alohida qayd etilgan [1, 24–31-betlar].

N.A. Egamberdiyeva autizm sindromli bolalar bilan ishlashni bugungi kunning muhim pedagogik muammolaridan biri sifatida baholaydi. Muallifning fikricha, autistik spektr buzilishiga ega bolalar bilan ishlashda ta'lim muassasalari, oila va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotda inklyuziv ta'lim sharoitida bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash uchun pedagoglarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi ko'rsatib berilgan [2, 15–18-betlar].

Tursunova D. autistik bolalarni tarbiyalashda maxsus pedagogik yordamning o'rnini chuqur o'rgangan. Muallif autizmli bolalarning hissiy-irodaviy sohasi, xulq-atvori va kommunikativ faoliyatidagi o'ziga xosliklarni tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korreksion mashg'ulotlarning tizimli ravishda olib borilishi bolaning mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik yordamning individual dasturlar asosida tashkil etilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligi qayd etilgan [3, 42–47-betlar].

Rasulova S. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda autistik bolalarda xulq-atvorni boshqarish va korreksiya qilish metodlari tahlil qilingan. Muallif amaliy xulq-atvor tahlili (ABA), rag'batlantirish tizimi, ijobiy mustahkamlash hamda sensor integratsiya elementlaridan foydalanish bolalarning moslashuvchan xulq-atvorini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalarida korreksion mashg'ulotlar orqali stereotip harakatlarning kamayishi va kommunikativ faollikning ortishi kuzatilgan [4, 58–64-betlar].

Qodirova F.U. va Po'latova D.A. tomonidan yaratilgan "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" asarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilishning nazariy va metodik asoslari bayon etilgan. Mualliflar inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari sifatida tenglik, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, individuallashtirilgan yondashuv va ta'lim muhitini moslashtirishni ko'rsatadilar. Asarda autistik spektr buzilishli bolalar bilan ishlashda vizual qo'llanmalar, differensial topshiriqlar va ko'p tarmoqli hamkorlikning ahamiyati keng yoritilgan [5, 73–81-betlar].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, autistik spektr buzilishli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligi individual yondashuv, vizual qo'llab-quvvatlash, xulq-atvorni korreksiya qilish metodlari hamda inklyuziv ta'lim muhitini to'g'ri tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois maktabgacha yoshdagi autizmli bolalarga ko'rsatiladigan pedagogik yordamni takomillashtirish, innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish va mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi autistik spektr buzilishli bolalarga korreksion-pedagogik ish usullarining ta'sirini o'rganishga qaratilgan nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida autizm va inklyuziv ta'lim muammolariga oid ilmiy-pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, autistik spektr buzilishli bolalarning rivojlanish xususiyatlari, kommunikativ ko'nikmalari va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat, pedagogik diagnostika va qiyosiy tahlil metodlari qo'llanildi.

Tadqiqotda korreksion-pedagogik ishlarning turli shakllari, jumladan, individual yondashuv, vizual qo'llab-quvvatlash, o'yin texnologiyalari, kommunikativ mashqlar hamda ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan faoliyatlarning samaradorligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahlil va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, autizmli bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Autizm nerv tizimi rivojlanishining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab holat bo'lib, uning dastlabki belgilari odatda bolaning ilk ikki-uch yoshida namoyon bo'la boshlaydi. Zamonaviy tibbiyotda autizm autistik spektr buzilishlari (ASB) tarkibiga kiritiladi va u shaxsning ijtimoiy muloqoti, kommunikativ faoliyati hamda xulq-atvorida o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, autizm o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan ko'proq uchraydi. Autizmning kelib chiqish sabablari to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, uning rivojlanishiga genetik moyillik, homila rivojlanishidagi xromosomal o'zgarishlar, markaziy nerv tizimining shikastlanishi, miya faoliyatidagi ayrim funksional buzilishlar hamda tug'ma nuqsonlar ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.

Autistik spektr buzilishlari turli darajada namoyon bo'lib, ayrim bolalarda tashqi dunyo bilan muloqotga kirishish istagining sustligi, boshqalarda esa ma'lum faoliyat yoki qiziqishlarga haddan tashqari bog'lanib qolish holatlari kuzatiladi. Ba'zi autizmlı shaxslar kundalik hayot faoliyatida mustaqil harakat qilishda qiyinchiliklarga duch kelsalar, ayrimlarida yuqori intellektual salohiyat va alohida qobiliyatlar namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli autizm bugungi kunda spektr tushunchasi orqali izohlanib, har bir bolaning rivojlanish darajasi va ehtiyojlari individual tarzda baholanadi.

Autizmning bir necha klinik ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular qatoriga Asperger sindromi, Kannerning erta bolalik autizmi, Rett sindromi bilan bog'liq autizm hamda boshqa shakllar kiradi. Hozirgi davrda ushbu holatlarning aksariyati autistik spektr buzilishlari umumiy tushunchasi ostida birlashtirilgan.

Erta bolalik autizmining asosiy belgilaridan biri ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishidagi qiyinchiliklardir. Bunday bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishga qiziqmasligi, atrofdagi insonlarning hissiyot va kechinmalariga yetarlicha e'tibor bermasligi mumkin. Shuningdek, ular ota-onalarining yuz ifodalari yoki harakatlariga taqlid qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar hamda o'z fikr va his-tuyg'ularini boshqalar bilan bo'lishishga kamroq intiladilar.

Autizmlı bolalarda nutq va kommunikativ rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari ham kuzatiladi. Ayrim hollarda nutqning kechikishi yoki umuman shakllanmasligi, yuz ifodalari va imo-ishoralardan kam foydalanish, ko'z bilan muloqot qilishdan qochish holatlari uchraydi. Nutqi rivojlangan bolalarda esa ayrim so'z yoki iboralarni takrorlash, monoton ohangda gapirish va intonatsion buzilishlar kuzatilishi mumkin.

Bundan tashqari, autizmlı bolalarda stereotipik xatti-harakatlar va tasavvur faoliyatining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Ular ko'pincha yolg'iz o'ynashni afzal ko'radilar, syujetli-rolı o'yinlarga kam qiziqadilar hamda ma'lum bir o'yinchoq yoki predmetga kuchli bog'lanib qolishlari mumkin. Ayrim hollarda bolaning diqqati uzoq vaqt davomida faqat bitta obyektga qaratiladi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning, shu jumladan autistik spektr buzilishiga ega bo'lgan o'quvchilarning ham teng huquqli ravishda ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor bolani mavjud muhitga moslashtirish emas, balki ta'lim muhitini bolaning ehtiyojlariga moslashtirishga qaratiladi.

Inklyuziv ta'limning teng imkoniyatlar yaratish, diskriminatsiyani bartaraf etish, individual yondashuv, hamkorlik va ijtimoiy integratsiya kabi tamoyillari autizmlı bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki ular barqaror, tushunarli va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitiga ehtiyoj sezadilar. Autizmlı bolalarda muloqotdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy vaziyatlarni tushunishdagi murakkabliklar, takroriy harakatlarga moyillik hamda shovqin, yorug'lik yoki teginishga nisbatan yuqori sezgirlik kuzatilishi mumkin. Shu sababli inklyuziv ta'lim jarayonida o'quv muhiti, pedagogik yondashuvlar va o'quv dasturlari ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirilishi zarur.

Autistik spektr buzilishli bolalarning asosiy xususiyatlari va pedagogik yondashuvlar

№	Autizmlı bolalarning rivojlanish xususiyatlari	Namoyon shakllari bo'lish	Tavsiya etiladigan korreksion-pedagogik yondashuvlar
1	Ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar	Tengdoshlar bilan muloqotga qiziqmaslik, hissiyotlarni tushunmaslik, ko'z bilan aloqa qilmaslik	Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi mashqlar, guruhli faoliyatlar, ijtimoiy hikoyalar usuli
2	Nutq va kommunikatsiya buzilishlari	Nutqning kechikishi, so'z va iboralarni takrorlash, monoton nutq	Logopedik mashg'ulotlar, vizual kommunikatsiya vositalari, PECS kartochkalari

3	Stereotipik xatti-harakatlar	Takroriy harakatlar, bir xil faoliyatga bog'lanib qolish	Xulq-atvorni korreksiya qilish metodlari, ABA elementlari, faoliyat turlarini bosqichma-bosqich o'zgartirish
4	Tasavvur va o'yin faoliyatidagi cheklanishlar	Syujetli o'yinlarga qiziqmaslik, yolg'iz o'ynashni afzal ko'rish	Rolli o'yinlar, o'yin terapiyasi, tengdoshlari bilan hamkorlikdagi mashg'ulotlar
5	Sensor sezgirlik	Shovqin, yorug'lik yoki teginishga ortiqcha reaksiya bildirish	Sensor integratsiya mashqlari, qulay va xavfsiz ta'lim muhiti yaratish
6	Diqqat va xulq-atvor xususiyatlari	Bir obyektga haddan tashqari e'tibor qaratish, faoliyatni o'zgartirishda qiyinchilik	Vizual jadval va kun tartibidan foydalanish, topshiriqlarni kichik bosqichlarga ajratish
7	Ijtimoiy moslashuv muammolari	Jamoada ishlashda qiyinchilik, yangi muhitga moslashishning sustligi	Inklyuziv ta'lim, ota-ona va mutaxassislar hamkorligi, individual rivojlantirish dasturlari

Jadval ma'lumotlari autistik spektr buzilishli bolalarning rivojlanishidagi asosiy xususiyatlar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan korreksion-pedagogik yondashuvlarni aks ettiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv, vizual qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va sensor moslashtirish usullaridan foydalanish autizimli bolalarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida mazkur metodlarni kompleks qo'llash bolalarning kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvi va mustaqilligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi aynan shu xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashuvni talab qiladi. Autizimli bolalar uchun qulay inklyuziv muhit yaratish bir nechta muhim yo'nalishni o'z ichiga oladi.

1. Fizik muhitni moslashtirish — sinf xonasi tinch va tartibli bo'lishi kerak. Ortiqcha shovqin va yorqin chiroqlar bolada bezovtalik keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun:

- shovqin darajasi kamaytiriladi;
- o'rindiqlar tartibli joylashtiriladi;
- vizual chalg'ituvchi narsalar kamaytiriladi.

2. Vizual qo'llab-quvvatlash — autizimli bolalar ko'pincha vizual axborotni yaxshi qabul qiladi. Shu sababli:

- rasmlar va jadvallar;
- kun tartibi (schedule);
- bosqichma-bosqich ko'rsatmalar ishlatiladi.

Bu bolaga vazifani tushunishni osonlashtiradi.

3. Dars jarayonini moslashtirish — inklyuziv ta'limda o'qituvchi darsni barcha o'quvchilarga moslashtirishi kerak:

- topshiriqlarni kichik qismlarga bo'lish;
- aniq va sodda ko'rsatmalar berish;
- takrorlash va mustahkamlashga e'tibor berish.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchi eng muhim shaxslardan biridir. U nafaqat bilim beruvchi, balki qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi bo'lishi kerak. O'qituvchi quyidagilarga e'tibor beradi: har bir bolaning individual ehtiyojini aniqlash; ijobiy psixologik muhit yaratish; sinfda bag'rikenglikni shakllantirish; autizimli bolaga bosim o'tkazmaslik. O'qituvchining sabr-toqati va tushunishi inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatining asosidir.

Inklyuziv ta'limning muhim jihatlaridan biri — autizimli bolalarning tengdoshlari bilan birga o'qishidir. Bu jarayon: ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi; muloqotni yaxshilaydi; jamoadagi o'rnini his qilishga yordam beradi. Guruhli ishlar va birgalikdagi mashg'ulotlar bolalar o'rtasida tushunish va hamkorlikni kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim samarali bo'lishi uchun ota-onalar va mutaxassislar hamkorligi juda muhim. Ota-onalar: bolaning xulqi va ehtiyojlari haqida ma'lumot beradi; uyda qo'llab-quvvatlaydi. Mutaxassislar (psixolog, logoped): rivojlanish bo'yicha tavsiyalar beradi; individual dasturlar tuzadi. Bu hamkorlik

bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Inklyuziv ta'lim nafaqat autizmlı bolalar, balki barcha o'quvchilar uchun foydalidir: bag'rikenglik shakllanadi; ijtimoiy tushunish rivojlanadi; kamsitish kamayadi; hamkorlik kuchayadi. Bu tizim jamiyatni yanada adolatli va insonparvar qiladi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi autistik spektr buzilishli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar ularning ijtimoiylashuvi, kommunikativ ko'nikmalari va bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, autizmlı bolalarda muloqot, nutq, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatilsa-da, o'z vaqtida tashkil etilgan pedagogik yordam ushbu muammolarni sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

Inklyuziv ta'lim muhitida autizmlı bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, vizual qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish, o'yin texnologiyalari, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mashqlari hamda xulq-atvorni korreksiya qilish usullarini qo'llash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, o'qituvchi, psixolog, logoped va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, autistik spektr buzilishli bolalar uchun qulay va moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, pedagoglarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy korreksion-pedagogik metodlarni amaliyotga keng joriy etish zarur. Natijada autizmlı bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi, ijtimoiy integratsiyasi kuchayadi va ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratiladi. Demak, korreksion-pedagogik ish usullarini takomillashtirish autistik spektr buzilishli bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim autizmlı bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun muhim vositadir. Ular uchun qulay muhit yaratish orqali nafaqat ta'lim sifati oshadi, balki ijtimoiy integratsiya ham kuchayadi. Har bir bolaning imkoniyatini hisobga olish va ularga teng sharoit yaratish — zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Inklyuziv ta'lim rivojlangan sari jamiyatda tenglik, hurmat va hamkorlik ham mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mo'minova L.R. Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 96 b.
2. Egamberdiyeva N.A. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida // Zamonaviy ta'lim muammolari va istiqbollari. – 2023. – B. 15–21.
3. Tursunova D. Maxsus pedagogik yordam orqali autistik bolalarni tarbiyalash metodlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2017. – 128 b.
4. Rasulova S. Autistik bolalarda xulq-atvorni boshqarish va koreksiya metodlari. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika instituti, 2019. – 112 b.
5. Qodirova F.U., Po'latova D.A. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. – Chirchiq, 2022. – 184 b.